

60110100 – *Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi)* bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Kunduzgi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil. Kechki va sirtqi ta‘limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4,5 (5) yil bo‘lishi mumkin.

Bakalavriat o‘quv dasturining hajmi ta‘lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi), foydalaniladigan ta‘lim texnologiyalaridan qat’iy nazar 240 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o‘quv yili uchun bakalavriat ta‘lim dasturining xajmi 60 kreditni tashkil etadi.

Mazkur yo‘nalish doirasida o‘quv dasturlari o‘zaro yaqin bo‘lgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya) berish amalga oshirilishi mumkin. Akademik guruh tanlovi asosidagi traektoriyaga ko‘ra kvalifikatsiya universitet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

60110100 – *Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi)* ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60110100 – Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

- o‘quv jarayonini rejalashtirish, DTS va O‘Dlarining maqsadlariga muvofiq o‘quv reja ishlab chiqish;

- ta‘lim samaradorligini ta‘minlash, o‘quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirish;

- ta‘lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish;

- tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini sinfdan tashqari ishlarga tadbiq etish;

- xavfsiz rivojlantiruvchi ta‘lim muhitini yaratish va ta‘minlash, o‘quvchilar orasida o‘zaro hurmat muhitini yaratish, o‘quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o‘quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

- o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash;

- ijtimoiy institutlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- pedagogika fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiiq etish;

- pedagogika ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.